



CHANGES IN THE PAYMENT AND PENSION SYSTEM IN VILLAGES (ON THE EXAMPLE OF THE REGIONS OF THE FERGANA VALLEY IN 1945-1965)

Sobirov Jamshidbek Zokirjon ugli

2nd-year master's student in History (by type of activity) at the Master's Department of Andijan State University.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15293820>

ARTICLE INFO

Received: 22nd April 2025
Accepted: 27th April 2025
Online: 28th April 2025

KEYWORDS

Fergana Valley, collective farmers, payment for labor, pension system, rural population, Soviet policy, wage reform.

ABSTRACT

In this article, changes in the system of remuneration and pension provision in rural areas of the Fergana Valley regions (Fergana, Andijan, and Namangan) during 1945-1965 are analyzed on a historical basis. The main attention in the postwar period was paid to the economic assessment of the labor of dekhkans working in collective and state farms, state-established wage rates, as well as updates related to pension provision for collective farmers. The article is based on archival materials, periodicals, statistical data, and scientific literature, revealing the territorial and social differences of Soviet labor policy.

ИЗМЕНЕНИЯ В СИСТЕМЕ ОПЛАТЫ ТРУДА И ПЕНСИЙ В СЕЛАХ (НА ПРИМЕРЕ ОБЛАСТЕЙ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ 1945-1965 ГГ.)

Собиров Жамшидбек Зокиржон угли

Магистрант 2-го курса Андижанского государственного университета по специальности История (по видам деятельности)
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15293820>

ARTICLE INFO

Received: 22nd April 2025
Accepted: 27th April 2025
Online: 28th April 2025

KEYWORDS

Ферганская долина, колхозники, заработная плата, пенсионная система, сельское население, советская политика, реформа заработной платы.

ABSTRACT

В данной статье на исторической основе анализируются изменения в системе оплаты труда и пенсионного обеспечения в сельской местности в областях Ферганской долины (Фергана, Андижан и Наманган) в период 1945-1965 годов. Основное внимание было уделено экономической оценке труда дехан, работающих в колхозах и совхозах в послевоенный период, установленным государством ставкам заработной платы, а также обновлениям, связанным с пенсионным обеспечением колхозников. Статья подготовлена на основе архивных материалов, периодической печати, статистических данных и научной литературы, раскрывает территориальные и социальные различия советской трудовой политики.

QISHLOQLARDA MEHNATGA HAQ TO'LASH VA PENSIYA TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR (1945-1965-YILLAR FARG'ONA VODIYSI VILOYATLARI MISOLIDA)

Sobirov Jamshidbek Zokirjon o'g'li



Andijon davlat universiteti Magistratura bo'limi Tarix (faoliyat turlari bo'yicha)
mutaxassisligi 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15293820>

ARTICLE INFO

Received: 22nd April 2025

Accepted: 27th April 2025

Online: 28th April 2025

KEYWORDS

Farg'ona vodiysi, kolxozchilar, mehnatga haq to'lash, pensiya tizimi, qishloq aholisi, sovet siyosati, ish haqi islohoti.

ABSTRACT

Mazkur maqolada 1945–1965-yillar davomida Farg'ona vodiysi viloyatlarida (Farg'ona, Andijon va Namangan) qishloq joylarda mehnatga haq to'lash va pensiya ta'minoti tizimidagi o'zgarishlar tarixiy asosda tahlil etiladi. Asosiy e'tibor urushdan keyingi davrda kolxoz va sovxozlarda ishlayotgan dehqonlar mehnatining iqtisodiy bahosi, davlat tomonidan belgilangan ish haqi stavkalari, shuningdek, kolxozchilarga nisbatan pensiya ta'minoti bilan bog'liq yangilanishlarga qaratilgan. Maqola arxiv materiallari, davr matbuoti, statistik ma'lumotlar va ilmiy adabiyotlar asosida tayyorlangan bo'lib, sovet mehnat siyosatining hududiy va ijtimoiy tafovutlarini ochib beradi.

KIRISH

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr O'zbekiston SSR, xususan, Farg'ona vodiysi uchun tub iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar davri bo'ldi. Aholining katta qismi yashaydigan va faoliyat yuritadigan qishloq hududlarida mehnatga haq to'lash tizimining shakllanishi va evolyutsiyasi sovet iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri edi. Shu bilan birga, pensiya ta'minotining qamrovi ham asta-sekin kengayib, kolxozchilar, urush qatnashchilari va ularning oilalariga nisbatan ijtimoiy kafolatlar mustahkamlandi. Ushbu maqolada aynan Farg'ona vodiysi viloyatlari misolida ushbu jarayonlarning tarixiy manzarasi ochib beriladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kichkilovning fikricha, 1945-yildan so'nggi davr O'zbekiston ijtimoiy hayotida tub burilish bosqichidir [1. 214]. Mualliflar ayniqsa, sovet ijtimoiy siyosatining qishloq aholisi, xususan kolxozchilarga nisbatan o'zgarishlarini alohida yoritganlar. Ular ta'kidlashicha, pensiya ta'minotining bosqichma-bosqich kengaytirilishi sovet ijtimoiy siyosatining universal ko'rinishga ega bo'lishiga zamin yaratgan. Qishloq joylarda ayollar va keksalar ijtimoiy himoyasi aynan 1956-yildan boshlab tizimlashtirilganligini mualliflar chuqur tahlil qiladilar. Azizxo'jayev ta'kidlashicha [2. 137], sovet davrida olib borilgan iqtisodiy siyosat shaklan ijtimoiy tenglikka asoslangan bo'lsa-da, mohiyatan u markazga qaramlikni kuchaytiruvchi mustamlakachilik siyosatining davomidir. Muallif fikricha, mehnatga haq to'lash va pensiya tizimi ham markaz tomonidan qat'iy nazorat qilinib, hududlar, xususan, Farg'ona vodiysi aholisi bu tizimda cheklovlar bilan duch kelgan. U pensiya siyosatini Sovet ittifoqining "siyosiy saxiyli" emas, balki nazoratni mustahkamlash vositasi sifatida baholaydi. Xomyakovaning fikricha, sovet davrida pensiya tizimi sinfiy va mehnat stajiga asoslangan edi. U 1936-yil Konstitutsiyasini burilish nuqtasi deb atab, pensiya huquqi butun aholi qatlamlari uchun qonuniy asosga ega bo'lganligini aytadi. 1945–1965-yillar oralig'ida bu tizim aniq huquqiy shaklga ega bo'lib, ayniqsa urush qatnashchilari, nogironlar, yolg'iz ayollar va kolxozchilar uchun moslashtirilgan. Maqola asosida pensiya tizimining huquqiy asoslari, uning siyosiy



mohiyati va real amaliyoti o'rtasidagi tafovutlar yoritiladi. Ahmedovning fikricha [6. 277], qishloq xo'jaligi siyosatida davlatning eng muhim vazifasi — aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan birga mehnatkashlarni moddiy va ijtimoiy jihatdan rag'batlantirish edi. Muallif kolxozchilarga pensiya tayinlash amaliyotining kechikkanini tan oladi, biroq bu tizim baribir sovet ijtimoiy siyosatining ahamiyatli qismi sifatida qaralganini ta'kidlaydi. Kitobda Farg'ona vodiysidagi kolxozlar faoliyati, ishchilarning roli, mehnatga haq to'lash va ijtimoiy ta'minot bo'yicha konkret misollar keltiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

1945-yilga kelib Farg'ona vodiysidagi kolxozlar urush tufayli iqtisodiy jihatdan zaiflashgan bo'lsa-da, tez orada davlat tomonidan qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash siyosati kuchaydi. Ayniqsa, 1950-yillar o'rtalariga kelib ish haqi tizimida belgilangan normativlar asosida barqarorlik kuzatildi. Kolxozchilar mehnati ko'proq natural ko'rinishda baholanar, ya'ni paxta yoki bug'doy topshirish evaziga maosh yoki boshqa to'lovlar berilardi. 1950-yillarning oxiri va 1960-yillarning boshlarida esa ish haqi pulda to'lash tizimi kengaydi. Masalan, 1965-yildayoq 250 ming mehnatkash ish haqining oshirilgan shaklidan foydalana boshladi [3. 95].

Davlat tomonidan belgilangan narx siyosatining (ayniqsa, paxtaga nisbatan) ijobiy ta'siri natijasida kolxozlar qo'shimcha daromad oldi, bu daromadlar kolxozchilar ish haqi fondiga yo'naltirildi. Shu tarzda Farg'ona vodiysidagi qishloq aholisi hayot darajasi asta-sekin yaxshilanib bordi. 1965-yilda O'zbekiston kolxozlarining umumiy pul daromadi 1 milliard 619 million so'mga yetdi.

1956-yilga qadar qishloq aholisi, xususan kolxozchilar pensiya tizimidan amalda foydalanolmasdi. Ular uchun faqat davlat xizmatida ishlaganlar yoki urushda ishtirok etganlar doirasida pensiya ta'minoti mavjud edi. Biroq 1956-yildan keyin bir necha marotaba islohotlar o'tkazildi. 1965-yil 1-yanvardan e'tiboran kolxozchilar uchun ham davlat pensiyasi berish to'g'risidagi qonun kuchga kirdi. Shu tariqa 380 mingdan ortiq qishloq aholisi ilk bor pensiya olish huquqiga ega bo'ldi.

Mazkur qonun bilan birga kolxozchilarga beriladigan pensiyalarning miqdori ham oshirildi. Masalan, I va II guruh nogironlar, urush qatnashchilari, yolg'iz onalar va boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga alohida e'tibor berildi. O'zbekiston SSRda 1965-yilda 643 ming kishi davlat pensiyasi oldi, bu ko'rsatkich 1959-yildagi 428 ming kishilik darajadan keskin yuqori edi [5. 47].

NATIJALAR

Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlari agrar jihatdan yuqori intensivlikka ega hududlar bo'lgani uchun pensiya tizimining joriy etilishi aynan shu hududlardagi ijtimoiy munosabatlarga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Pensiya oluvchilarning soni faqat miqdoriy emas, balki sifati jihatdan ham o'zgardi: endilikda nafaqaxo'rlar tarkibida qishloq ayollari, yoshi ulug' dehqonlar, oilaviy boqimandalar ham bo'lishi pensiyaning faqat «siyosiy imtiyoz» emas, balki «ijtimoiy yordam» shakliga aylanganidan dalolat beradi.

1945–1965-yillar oralig'ida Farg'ona vodiysi qishloq xo'jaligi mehnatkashlari hayotida yuz bergan muhim o'zgarishlardan biri – kolxozlarning iqtisodiy-iqtisodiy ixtisoslashuv asosida qayta tashkil qilinishidir. Xususan, 1950-yilga kelib O'zbekiston SSRda ilgari mavjud bo'lgan 1770 ta mayda kolxoz o'rniga 752 ta yirik kolxoz tashkil etildi. Bu yiriklashuv Farg'ona



vodiysi viloyatlariga ham taalluqli bo'lib, har bir yangi kolxozga o'rtacha 231 ta xonadon to'g'ri kelgan, bu esa boshqaruvni markazlashtirish va mehnat unumdorligini oshirish imkonini berdi [4. 224].

Mazkur qayta tuzilish kolxozchilarning ish haqiga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. Yiriklashtirilgan xo'jaliklar iqtisodiy jihatdan barqaror, davlatga topshiriladigan mahsulot hajmi yuqori bo'lganligi sababli, bu kolxozlarda ishlab turgan ishchilarning mehnati yaxshiroq baholandi. Farg'ona vodiysi kolxozlarida garchi ish haqi mutlaq raqamda sobit bo'lmasa-da, qishloq xo'jaligida eng faol qatlam – paxtakor, g'allakor, bog'bonlar uchun rag'batlantiruvchi to'lovlar joriy qilindi. Misol uchun, "Lenin", "Oqtepa", "Leningrad" nomli kolxozlarda yillik sof daromadning 1 million so'mdan ortig'i aynan mehnatga haq to'lash jamg'armasiga yo'naltirilgan.

Ayniqsa, paxtachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarda har bir mehnat kuni (trudoden) uchun beriladigan haq boshqa tarmoqlardagi kolxozchilarnikiga nisbatan yuqori edi. Bu holat mehnatni iqtisodiy jihatdan baholashda ixtisoslashuv darajasi va davlat rejaları bajarilishiga ko'ra farqlanish borligini ko'rsatadi.

Urushdan keyingi yillarda, ayniqsa 1950-yillar o'rtalarigacha kolxozchilarning mehnati ko'p hollarda natural asosda baholandi. Ya'ni ish haqi mehnat kuni soniga ko'ra hisoblab chiqilib, qishloq xo'jaligi mahsuloti – paxta, bug'doy, moy, go'sht yoki boshqa materiallar shaklida berilardi. Bu tizim xalq og'zida "trudoden" deb yuritilgan bo'lib, real hayotda ko'plab muammolarga sabab bo'lgan.

Kolxozchilarning bir yillik mehnatiga to'g'ri keladigan natural to'lovlar juda kam, ayrim hollarda esa umuman to'lanmasligi holatlari kuzatilgan. Aholining shikoyatlari va Sovet rahbariyatining tanqidiy fikrlari natijasida 1956–1958-yillar oralig'ida qishloq xo'jaligida pulda to'lov tizimi bosqichma-bosqich joriy qilina boshlandi. Bu jarayonda Farg'ona vodiysidagi ilg'or xo'jaliklar tajribasi asos qilib olindi. Andijon viloyatining Baliqchi, Namangan viloyatining Chust tumanlarida mehnat unumdorligi yuqori kolxozlarda pul shaklidagi ish haqi tajriba tariqasida joriy etildi [6. 277].

Ushbu tajriba natijalari ijobiy bo'lib, kolxozchilarning mehnatga nisbatan munosabati ijobiy tomonga o'zgarishini ko'rsatdi. Shu sababli, 1960-yillarga kelib, pulda to'lov umumlashtirildi va kolxozlar faoliyatida oylik hisob-kitob tizimi joriy etildi.

1956-yil pensiya tizimining tubdan isloh qilinishi bilan qishloq joylardagi kolxozchilar ham birinchi marta davlat tomonidan kafolatlangan pensiyaga ega bo'la boshladilar. Bu holat ayniqsa, uzoq yillar kolxozda ishlagan, lekin ilgari pensiya olish huquqiga ega bo'lmagan keksa dehqonlar uchun tarixiy ahamiyatga ega edi. Farg'ona vodiysining Yazyovan, Buvayda, Shohimardon va Oltiariq tumanlaridagi arxiv ma'lumotlariga ko'ra, 1961-yilga kelib ushbu hududlarda 13 mingdan ortiq kolxozchi davlat pensiyasiga qabul qilingan.

Pensiya miqdori mehnat stajiga, kolxoz a'zoligiga qachon kirganiga, ishtirok etgan ish turlari va sog'liq holatiga bog'liq ravishda belgilangan. Ayniqsa, urush qatnashchilari, I va II guruh nogironlar, yolg'iz ayollar va urushda halok bo'lganlarning oila a'zolari uchun maxsus imtiyozlar taqdim etilgan.

Qishloq joylarda pensiya tizimi nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minladi, balki ijtimoiy adolat, davlatga bo'lgan ishonch, va fuqarolarning ijtimoiy himoyaga bo'lgan ishonchini



oshirdi. Farg'ona vodiysida pensiya oluvchilarning soni va sifati o'sib bordi, bu esa qishloq aholisining turmush tarziga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekiston SSRda kolxozchilarning pensiya ta'minoti dastlab 1950-yillar oxirlarida ba'zi ilg'or kolxozlarda tajriba tariqasida joriy etildi. Bu kolxozlar o'z iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, o'zlarining mehnatga yaroqsiz, keksaygan a'zolariga ishlab chiqarishdagi hissasini hisobga olgan holda pensiya tayinlashni boshladi. Ushbu tajriba kolxozchilarning mehnatga munosabatini o'zgartirdi, ularning faolligini oshirdi, hamda jamiyatga bo'lgan sadoqatini mustahkamladi.

1959-yil 22-iyunda O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti ushbu ilg'or tajribani ma'qulladi va barcha kolxozlarga uni joriy etishni tavsiya etdi. Shundan so'ng, qishloq xo'jalik artellarining har biri o'z iqtisodiy holatidan kelib chiqib, pensiya to'lash uchun maxsus jamg'armalar tashkil eta boshladi. Bu jamg'armalar kolxozlarning umumiy budjetidan ajratilgan bo'lib, kolxoz ichida mehnatga yaroqsiz kishilarni ijtimoiy himoya qilish tizimi sifatida faoliyat ko'rsatdi. Ayniqsa, 1956-yil 6-martdagi KPSS Markaziy Qo'mitasi va SSSR Ministrlar Sovetining "Qishloq xo'jalik artellarining Ustavi to'g'risida"gi qarori kolxozchilarni pensiya bilan ta'minlash masalasini birinchi bor markaziy hukumat darajasida huquqiy jihatdan mustahkamlab berdi [7. 99].

Kolxozlar o'z a'zolari uchun faqat pensiya emas, balki boshqa ijtimoiy xizmatlar – uy-joy qurilishi, madaniy-maishiy sharoitlarni yaxshilash, tibbiy yordam ko'rsatish, bolalar bog'chalari, kutubxonalar, klub binolari va boshqa infratuzilmalarni qurishga ham mablag' ajrata boshladilar. 1950–1960-yillar oralig'ida O'zbekiston SSR kolxozlari tomonidan madaniy fondlarga ajratilgan mablag' 1 milliard so'mdan oshgani bu boradagi keng ko'lamlı ishlarining dalilidir.

Farg'ona vodiysidagi qishloqlarda bu infratuzilmaviy o'zgarishlar kolxozchilarning turmush darajasini sezilarli darajada yaxshiladi. Masalan, Buvayda, Uchko'prik va Baliqchi tumanlarida o'rganilgan arxiv manbalariga ko'ra, kolxozlar o'z mablag'lari hisobidan 1960-yillarda minglab yangi uylar qurgan va aholiga bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan topshirgan.

1964-yil 31-dekabrda SSSR Oliy Soveti Prezidiumi tomonidan qabul qilingan farmonga muvofiq, I va II guruh nogironlar, boquvchisini yo'qotgan oilalar uchun pensiya miqdorlari oshirildi. Va nihoyat, 1965-yil 1-yanvardan boshlab "Kolxozchilarni pensiya bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonun kuchga kirdi. Bu qonun asosida O'zbekiston SSRda birgina 1965-yilning o'zida 380 mingdan ortiq kolxozchi pensiyaga chiqdi va davlat budjetidan bu maqsadda 277 million so'm ajratildi.

Bunday islohotlar natijasida pensiyadan foydalanuvchi fuqaro soni keskin oshdi. Faqatgina shu yili 600 mingga yaqin ko'p bolali onalar va yolg'iz ayollar davlat nafaqasiga chiqdi. Umuman, turli ijtimoiy toifadagi 900 mingga yaqin fuqaro turli shakllardagi pensiyalar bilan ta'minlandi.

Bu holat shuni ko'rsatadiki, sovet hukumatining ijtimoiy siyosati 1960-yillarga kelib qishloq aholisi, xususan, kolxozchilar manfaatlariga ham qaratildi. Bu esa sobiq mustabid siyosat ostida ham ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillarining muayyan darajada joriy etilganini anglatadi.

1945–1965-yillar oralig'ida Farg'ona vodiysi qishloqlarida mehnatga jalb qilingan aholining yirik qismini ayollar tashkil etar edi. Urushdan keyingi davrda erkaklar sonining



keskin kamayib ketgani sababli, kolxozlar va sovxozlar faoliyatining asosiy yukini aynan ayollar ko'tardilar. Ayniqsa, paxtachilik, pillachilik, bog'dorchilik va chorvachilik kabi mehnat tarmoqlarida ayollar uzluksiz ishladilar. 1954–1955-yillarda Farg'ona vodiysi kolxozlarida davlatga 250 ming sentnerdan ortiq pilla topshirilgan bo'lib, bu natijaning katta qismi aynan ayollar zimmasidagi mashaqqatli mehnat natijasi edi.

Ammo ayollarning bu ulkan hissasiga qaramay, ular uchun belgilangan ish haqi erkaklarga nisbatan ancha kam edi. Mehnat kunining (trudoden) baholanishida gender tafovutlar yaqqol sezilib, ayollar ish kuni ko'pincha past baholangan yoki ularning mehnati natural to'lovda aks ettirilgan. Bu holat ayollar orasida norozilik tug'dirgani haqida arxiv ma'lumotlarida alohida qayd etilgan. Ayollar ko'p hollarda ikki baravar ish — kolxozdagi og'ir jismoniy mehnat va uyda bolalarni parvarishlash, ro'zg'or ishlari —ni bajargan bo'lsalar-da, ularning mehnati kamroq tan olinardi.

Ayollarning ijtimoiy ta'minot, xususan pensiya tizimidagi o'rni ham uzoq vaqtgacha noaniq va yetarlicha tartibga solinmagan edi. Urushdan keyingi davrda, ayniqsa 1950-yillar oxiriga kelibgina, ko'p bolali onalar, beva ayollar, nogiron ayollar uchun alohida pensiya ajratilishi belgilandi. Shu tariqa, 1956–1965-yillar oralig'ida Farg'ona vodiysidagi kolxoz ayollari orasida pensiyaga chiqish darajasi ortib bordi, ammo bu jarayon ham umumxalq emas, balki tanlab olingan toifalar doirasida kechdi.

Sovet hukumatining "Hujum" siyosati (1927 yildan boshlab) dastlab ayollarni paranjidan ozod etish, ularni ijtimoiy faoliyatga jalb qilish maqsadida boshlangan edi. Bu siyosat 1940–1960-yillarda yangi bosqichga o'tib, ayollarni jismoniy mehnatga keng jalb qilish vositasiga aylandi. Paxta ekish, terish, yer shudgorlash, go'ng tashish, chorva parvarishi, bog' va tokzorlarni parvarishlash kabi eng og'ir yumushlarning katta qismini aynan ayollar bajarishdi [5. 47].

Bu siyosiy liniyaning zamirida "ayollar teng huquqli mehnat subyekti" sifatida ilgari surilishi turar edi. Ammo real hayotda ayollar erkaklar bilan teng sharoitda emas, balki ko'pincha og'irroq, ko'proq mehnat qiluvchi, ammo kamroq haq oluvchi ijtimoiy guruhga aylanishdi. Farg'ona vodiysi kolxozlarida ayollarning o'rtacha yillik daromadi erkaklarnikiga nisbatan 30–40% kam bo'lgan. Bunga sabablardan biri ularning jismoniy kuch talab etiladigan texnik operatsiyalar, masalan, traktor haydash, mexanizatorlik, qurilish kabi sohalarga kam jalb qilingani bo'lsa, ikkinchisi mehnat bahosining quyi bo'lishi bilan bog'liq edi.

Shunga qaramay, Farg'ona vodiysida bir qator ayollar "Sotsialist mehnat qahramoni", "Lenin ordeni" kabi unvonlarga sazovor bo'lishdi. Masalan, Bag'dod tumanidagi "Leningrad" kolxozining komsomolchi pillachisi Suraxon Bozorova kolxoz daromadiga 1 million so'mdan ortiq foyda keltirganligi sababli, respublikada mashhur mehnat ilg'ori sifatida tan olingan. Bu kabi misollar sovet ayollarining og'ir sharoitdagi fidokorona mehnatini tasdiqlaydi.

Sovet O'zbekistonida pensiya tizimi 1956-yilda qabul qilingan "Davlat pensiyalari to'g'risida"gi qonun asosida tarixiy burilish yasadi. Bu qonun birinchi marta barcha toifadagi mehnatkashlar — kolxozchilar, ishchilar, xizmatchilar, nogironlar va beva fuqarolarni yagona ijtimoiy kafolat tizimi doirasida pensiyaga chiqish huquqiga ega qildi. IV tomda keltirilishicha, qonunning qabul qilinishi nafaqat ijtimoiy adolatni tiklash, balki aholining mehnatga bo'lgan munosabatini o'zgartirishda muhim rol o'ynagan.



Qonunga muvofiq, erkaklar 60 yoshda, ayollar esa 55 yoshda pensiyaga chiqish huquqiga ega bo'ldi. Bu holat, ayniqsa, ayollarning ijtimoiy himoyasini mustahkamlashda muhim bo'ldi. Pensiyalar endilikda ish staji asosida belgilanib, uzoq yillar uzluksiz ishlaganlarga qo'shimcha ustamalar ajratilishi mumkin edi. Ayollar uchun ko'p bolalik, yolg'iz onalik, nogiron bola tarbiyasi bilan bog'liq mehnat faoliyati hisobga olinib, pensiya olishdagi imtiyozlar kengaytirildi.

Pensiyalarning eng kam va eng ko'p miqdorlari qonuniy tartibda belgilandi. Pensiya olish uchun zarur hujjatlarni tayyorlash, individual hisob raqamlari ochish, pensiya turlari bo'yicha ariza berish tartiblari huquqiy jihatdan aniqlashtirildi. Pensiya olish nafaqat ijtimoiy himoya, balki siyosiy motivatsiya vositasi sifatida ham xizmat qilgan.

1950–1960-yillarda sovet O'zbekistonida ayollar mehnati davlat siyosatining asosiy elementlaridan biri edi. Ayniqsa qishloqlarda, ayollar og'ir jismoniy mehnatda faol ishtirok etar, lekin ularning ijtimoiy himoyasi ko'plab muammolar bilan to'qnash kelar edi. Shu sababli, 1956-yildagi qonundan boshlab, ko'p bolali onalar, yolg'iz ayollar, nogiron bola parvarish qilayotgan ayollar uchun pensiya olishdagi shartlar yengillashtirildi.

1958-yilda O'zbekiston SSR kasaba uyushmalari byudjetidan nafaqat pensiyalar, balki ayollar uchun salkam 700 million so'mlik ijtimoiy-maishiy va sog'liqni saqlash xarajatlari amalga oshirildi. Bu mablag'lar ayollarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, bolalar bog'chalari, ayollar yotoqxonalarini qurish, kasb-hunar o'rganish markazlarini ochishga yo'naltirildi.

Ayniqsa, parvarish ishlarida bo'lgan, nogiron qarindoshiga qarayotgan, yoki vaqtincha mehnatga layoqatsiz bo'lgan ayollar uchun alohida pensiya turlari joriy qilindi. Bular — nogironlik pensiyasi, boqimanda uchun ajratilgan nafaqa va vaqtincha ishlay olmaydiganlar uchun to'lanadigan ijtimoiy yordamlarni o'z ichiga olardi.

1950-yillarning oxiriga kelib, davlat byudjetidan pensiyalarga ajratilayotgan mablag' hajmi sezilarli darajada ortdi. Masalan, 1955-yilda bu ko'rsatkich 3 milliard so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 1957-yilda u 5 milliard so'mdan oshib ketdi. O'zbekiston SSRda ijtimoiy ta'minotning umumiy yillik hajmi esa kasaba uyushmalari budjeti bilan birga 700–800 million so'mni tashkil etgan [3. 95].

Shu tariqa, davlatning pensiya ta'minotidagi yondashuvi faqat moliyaviy taqsimot emas, balki siyosiy-iqtisodiy islohotlar strategiyasi doirasida olib borilgan. Pensiya siyosati orqali aholining mehnatga bo'lgan munosabati ijobiylashtirilgan, siyosiy barqarorlik mustahkamlangan, ayollar va ijtimoiy zaif qatlamlar ijtimoiy himoyaga olingan.

XULOSA VA MUNOZARA

1945–1965-yillar davomida Farg'ona vodiysida mehnatga haq to'lash va pensiya tizimi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, bosqichma-bosqich rivojlandi. Bu davrda kolxozchilarning ish haqlari barqarorlashib, sovet davlatining maqsadli siyosati evaziga qishloq aholisi uchun moddiy sharoitlar yaxshilandi. Xususan, 1965-yildan boshlab pensiya tizimining qishloq aholisi uchun ham joriy qilinishi, sovet ijtimoiy siyosatining universallashtirishiga xizmat qildi. Bu esa aholining davlatga bo'lgan ishonchini oshirdi, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamladi va dehqon mehnatining qadrlanish darajasini yangi bosqichga olib chiqdi.



References:

1. Kichkilov H., Fayzulloeva M. Eng yangi tarix (1945–2010). – Toshkent: Yangi nashr, 2011. 214-b.
2. Azizxo'jaev A. O'zbekiston sovet mustamlaka davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. 137-b.
3. O'zbekiston tarixi. I va II tomlar. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. 95-b.
4. Sovet O'zbekistoni kitoblari (1945–1965). – Toshkent: Davlat kitob palatasi, 1981–1982. 224-b.
5. "Sotsialno-pravovye aspekty organizatsii pensionnogo obespecheniya". Vestnik OGU, №5 (154), 2013. 47-b.
6. Axmedov A. O'zbekistonda qishloq xo'jaligining rivojlanishi tarixidan. – Toshkent: Fan, 1983. 277-b.
7. "O'zbekiston SSRda pensiya ta'minoti to'g'risidagi farmonlar to'plami". – Toshkent, 1965. 99-b.
8. O'zbekiston SSR tarixi. IV tom. – Toshkent: Fan, 1971. 51-b.